

OLIY TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISHNI RIVOJLANTIRISH VA ULARNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI

Xasanova Feruza Xurramovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17983588>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mohiyati va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni, hamda ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash samarasi haqida fikr yuritilgan va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoniga yangicha yondashish borasida takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, pedagogik texnologiya, ta'lim sifati, texnika, innovatsion yondashuv, multemidiya vositalari, interfaol metodlar.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation"-yangilik kiritish,ixtiro) ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllanirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb yuritiladi.

O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi. "Faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi."-degan edi mashhur pedagog A.Nikolskaya. Innovatsion texnologiyalardan asosiy maqsad o'qituvchi va o'quvchi mushtarakligiga erishish, o'quvchilarni fanga qiziqtirish, ta'limga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, o'rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish, axborot kommunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallarni mavzu bilan uyg'unlashtirish kabilarni keltirish mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar kelajakda ham mehnat bozorida talab mavjud bo'ladigan zamonaviy mutaxassis-kadrlarni tayyorlash uchun ta'lim jarayonida juda muhim ahamiyatga egadir. Zamonaviy kadrlar tayyorlash uchun pedagogning o'zi ham zamonaviy AKT vositalaridan foydalangan holda, eng so'nggi ilm-fan yutuqlaridan, o'zi bilim berayotgan soha yangiliklaridan xabardor bo'lishi va eng yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishi talab etiladi.

Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha konsepsiyada mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarini xalqaro 1000 talik ta'lim muassasalari safiga kiritish maqsad qilingan.

Ammo, innovatsion pedagogik texnologiyalarning xalqaro tajribasini o'rganish va unlarni tadbiq etish nisbatan sekin amalga oshirilmoqda. Fikrimizni aniqroq bayon etish uchun turli xildagi abituriyent tayyorlash o'quv kurslarini misol qilib keltirsak, bir tayyorlov kursi pedagogining maqsadi eng avvalo nomi eng yaxshilar safiga kirishi emas, mehnati samarasi bo'lgan tahsil oluvchilarning ko'zlangan maqsadiga erishishi bo'lib hisoblanadi. Misol uchun, ingliz tilidan IELTS kurslarini tahsil oluvchilari ushbu sertifikatni yuqori ballarda egallashi, fanlar bo'yicha abituriyentlarning o'zi tanlagan oliy ta'lim muassasasiga yuqori natijalar bilan o'qishga kirishi o'sha pedagogning birinchi o'rindagi maqsadi bo'lib hisoblanadi va shu maqsadga erishishi o'z-o'zidan uni eng yaxshi kurslar qatoriga kiritib qo'yadi.

Ushbu yutuqlarning barchasi o'sha pedagogning nafaqat kuchli bilimiga, balki shu bilimni yetkazib berishga doir pedagogik texnologiyasiga ham bog'liqdir. Oliy ta'lim muassasalarida ham maqsadni ushbu dargoh tayyorlagan mutaxassislar karyerasidagi yutuqlari va yuqori talabga ega yetuk kadr bo'lganlari bilan bog'lash kerak deb hisoblaymiz. Chunki har qanday faoliyatning sifatli amalga oshirilganligi uning natijasida aks etadi. Ta'lim jarayonining sifatli amalga oshirilishida o'qitishni innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali amalga oshirishning o'zni beqiyosdir. OTMlardagi muayyan yo'nalishdagi mutaxassisni tayyorlashda shunday sifatli, amaliyot bilan bog'liq bo'lgan holdagi ta'lim berish kerakki bitiruvchilar ishga kirish jarayonida yana qo'shimcha kurslarga borishiga hojat qolmasin.

Masalan buxgalteriya sohasida tahsil olayotgan talabalarga 1S va 1UZ kabi buxgalteriya dasturlarida ishlash talabalik davrida o'rgatilsin, ular diplom olgandan keyin yana pul to'lab kurslarga borib o'rganishga zarurat sezmasin. Yoki ingliz tili yo'nalishida tahsil oladigan, OTMda berilgan bilimlar asosida IELTS sertifikatini olishga qodir bo'lsin, yana kurslarga qatnamasdan.

Hozirgi va kelajakda eng katta talab qaratilgan kasb bu - IT bo'yicha mutaxassislardir.

Mana shu yo'nalishlar ko'proq ochilsin oliy ta'lim muassasalarida va shu sohada yetuk kadrlar tayyorlash uchun pedagoglar ham chuqur bilim va yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lib, innovatsion texnologiyalar asosida o'qitishsin. Mana shu kabi sohalarda yutuqlarga erishishi uchun zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan ta'minlangan va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tiladigan oliy ta'lim muassasalari eng yaxshi institutlar safiga albatta kiradi deb o'ylaymiz. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlashda o'qituvchida innovatsion faoliyat haqida tushuncha bo'lishi kerak. Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish to'g'risidagi PF-4732-son Prezident farmoni aynan oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonlarini takomillashtirishning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining rolini oshirish bilan tavsiflanadi. Talabalar tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir.

Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishining ta'lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Oliy ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalari deganda ta'limda fanning zamonaviy yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan usullar tushuniladi. Ular talabalarning ijodkorligi va mustaqilligini rivojlantirish orqali o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan va onlayn ta'lim olish imkonini beradi, talabalarning o'rganilayotgan fanga qiziqishini oshirish, o'qishni kundalik hayot amaliyotiga yaqinlashtirish (samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, tez o'zgaruvchan turmush sharoitlariga moslashish, psixologik stressga chidamliligini oshirish, nizolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish va boshqalar), yangi sotsiologik bilimlarni olish usullarini o'rgatish.¹

Oliy ta'limda texnologiyadan foydalanish bilan bog'liq asosiy pedagogik muammolardan biri raqamli vositalarni o'qitish va o'qitish jarayoniga umumiy ta'lim tajribasini kamaytiruvchi emas, balki yaxshilaydigan tarzda samarali integratsiyalashuvini ta'minlash zarurati hisoblanadi.

Bu nafaqat ma'lum bir ta'lim konteksti uchun eng mos texnologiyalarni tanlashni, balki o'qituvchilarni o'qitish amaliyotida ushbu vositalardan samarali foydalanish uchun zarur tayyorgarlik va yordam bilan ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. O'qituvchilar hal qilishlari kerak bo'lgan yana bir muhim masala raqamli tafovutni qanday hal qilish kerak - texnologiyaga ega bo'lgan va foydalana olmaydigan talabalar o'rtasidagi tafovut.² Barcha talabalar texnologiya takomillashtirilgan ta'limdan foydalanishda teng imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlash uchun institutlar o'quvchilarni zarur jihozlar va aloqa bilan ta'minlash uchun infratuzilma va resurslarga sarmoya kiritishlari kerak. Bundan tashqari, o'qituvchilar oliy ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning axloqiy oqibatlarini, jumladan, ma'lumotlarning maxfiyligi, intellektual mulk huquqlari va texnologiyaning mavjud noto'g'ri va tengsizliklarni kuchaytirish potentsiali bilan bog'liq muammolarni hisobga olishlari kerak. Pedagoglar o'zlarining pedagogik tanlovlarining kengroq ijtimoiy oqibatlarini hisobga olgan holda texnologiyani amalga oshirishga chuqur o'ylangan va tanqidiy yondashishlari zarur. Xulosa qilib aytish mumkinki, oliy ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalardan foydalanish puxta o'ylab ko'rish va strategik rejalashtirishni talab qiluvchi murakkab va ko'p qirrali pedagogik muammodir. Texnologiyaning imkoniyatlaridan foydalanish va uning cheklovlarini tan olish orqali o'qituvchilar barcha talabalar uchun yanada qiziqarli, samarali va adolatli o'rganish tajribasini yaratish uchun raqamli vositalar kuchidan foydalanishlari mumkin.³

O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, o'qitish sifati va mazmunini yangi bosqichga ko'tarish, malakali kadrlar tayyorlashning zamonaviy mexanizmini yaratish, o'quv dasturlari va adabiyotlarini yangilashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich, tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekiston sharoitida sharqona tarbiya mazmunini o'zida mujassam etgan darsliklar, adabiyotlarda o'quvchi-yoshlarda axborot xavfsizligi tushunchalarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

¹ Akram o'g'li, X. S. (2023). Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ahamiyati. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(17), -B.564-566.

² Sharopova, Z. F. (2019). Ta'lim texnologiyalari. Navro 'z', Toshkent.

³ Xurshidjon, Boymirzayev. "Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi." universal journal of academic and multidisciplinary research 1, no. 4 (2023): 24-31bet.

Jumladan bugungi axborot xurujlari, internet va turli xildagi saytlarda g'oyaviy va mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy tarbiya, vatanparvarlik tuyg'ularining shakllantirish bugungi globallashuv jarayonida muhim sanaladi. Biz tez suratlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshdan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqdalar. Kimdir yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborot davri sifatida izohlamogda. Chunki ularning har biri o'zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda. Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obektiv tan olish kerak, bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaq va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma'noda, globallashuv-bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti sanoat shpionaji, kompyuter jinoyatchiligi, konfidentsial ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, o'zgartirish, yo'qotish kabi salbiy hodisalar bilan birgalikda kuzatilmoqda. Shuning uchun axborotni muhofaza qilish har qanday mamlakatda muhim davlat vazifasi hisoblanadi. O'zbekistonda axborotni muhofaza qilishning zaruriyati axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi yaratilishida va axborot xavfsizligining huquqiy bazasini rivojlantirishda o'z ifodasini topmoqda. «Axborotlashtirish to'g'risida», «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida», «Elektron hisoblash mashinalari dasturlari va ma'lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to'g'risida» va boshqa qonunlar hamda bir qator Hukumat qarorlari qabul qilindi va amalga tatbiq etilmoqda. Shu o'rinda axborot, axborot xavfsizligi, ommaviy axborot vositalari, axborot madaniyati, ta'lim jarayonida axborot almashish kabi tushunchalarga to'xtaladigan bo'lsak, ularning barchasi albatta o'quvchi-yoshlarga, shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar sanalmish irsiyat, muhit va ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi va ularning shakllanishiga ta'sir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: «O'zbekiston», 2016. -56 b.
2. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng

- muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017.-104 b.
3. Avliyoqulov N.X, Musayeva N.N. “Yangi pedagogic texnologiyalar” darslik 15-20b.
 4. N.A.Muslimov “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” o`quv-uslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b.
 5. Chernenko, Olexander. "Modern pedagogical technologies in higher education." Pedagogy and education management review 2 (2020): 52-59p.
 6. Phillips, Rob. "Pedagogical, institutional and human factors influencing the widespread adoption of educational technology in higher education." In EDUCAUSE 2007: The Best Thinking in Higher ED IT. 2007.
 7. Herrington, Jan, Anthony Herrington, Jessica Mantei, I. W. Olney, and Brian Ferry. "New technologies, new pedagogies: Mobile learning in higher education." (2009).